

**TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA
TAYYORLASH VAZIFALARI VA PEDAGOGIK JARAYON BOSQICHLARI
MODULI**

*Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna
“University of economics and pedagogy” NOTM,
Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta’limda pedagogik amaliyot orqali talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va takomillashtirish usullari, vazifalari va pedagogik jarayon bosqichlari moduli aks etgan.

Kalit so‘zlar: modulli dastur, yillik reja, tavsiya, maslahatlar, portfolio, hamkorlik muhiti, , anatomik-fiziologik, ruxiy xususiyatlar.

**ЗАДАЧИ И ЭТАПЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА
ПОДГОТОВКИ ОБУЧАЮЩИХСЯ К СОТРУДНИЧЕСТВУ С
РОДИТЕЛЯМИ МОДУЛЬ**

*Абдурахманова Сайёрахан Шахобидиновна.
«Университет экономики и педагогики» НОТМ,
Старший преподаватель кафедры педагогики.*

Аннотация: В данной статье отражены методы, задачи и этапы педагогического процесса внедрения и совершенствования педагогических технологий, направленных на сотрудничество студентов с родителями в высшей школе посредством педагогической практики.

Ключевые слова: модульная программа, годовой план, рекомендации, советы, портфолио, среда сотрудничества, анатомо-физиологические, психические характеристики.

MODULE OF TASKS AND STAGES OF THE PEDAGOGICAL PROCESS FOR PREPARING STUDENTS TO COOPERATE WITH PARENTS

*Abdurakhmonova Sayyorahon Shakhobidinovna
“University of economics and pedagogy” NOTM,
Senior lecturer of the Department of Pedagogy.*

Annotation: This article reflects the module of methods, tasks and stages of the pedagogical process for introducing and improving pedagogical technologies aimed at cooperating students with parents through pedagogical practice in higher education.

Keywords: modular program, annual plan, recommendations, advice, portfolio, collaborative environment, , anatomical-physiological, psychological characteristics.

Har qanday mamlakat taraqqiyoti o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lgan kadrlarga bog‘liq. Rivojlanish bosqichini samarali bosib o‘tgan mamlakatlarning 64 foizi[1] aynan inson kapitali sifati, jumladan, aholi tomonidan ishlab chiqarish jarayoni va kundalik hayotda samarali yechimlarni topish uchun to‘plangan bilim va ko‘nikmalarga bog‘liq bo‘lgan.

Fikrimizcha, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi”[2]da nazarda tutilgan vazifalarni oila va uzluksiz ta’lim tizimi (Oliy ta’lim, maktabgacha ta’lim, oila)da pedagogik amaliyot vositasida amalga oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalg etish bilan bir qatorda, talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarini yangicha tarzda foydalanishni taqozo etadi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi sharoitda oilalarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan, sharqona axloqiy xususiyatlar aks etgan ma’naviy-

axloqiy munosabatlar qaror topmoqda va oilalarda huquqiy, axloqiy va ruhiy asoslar takomillashib bormoqda. Uyda sog‘lom axloqiy muhit, o‘zaro muomala madaniyati, axloqiy tamoyil chuqur ildiz otmasa, oilada bo‘shliq, salbiy holatlarning qaror topishi muqarrardir[3].

Ma’lumki, MTTda ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha juda ko‘p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni hammadan ko‘proq ko‘radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi: bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish, ota-onalarga o‘z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish, ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, malakalardan habardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruxiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish), bola tarbiyasida oila bilan hamjixatlik, bolani to‘g‘ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi na’munalarini o‘rganish va ommalashtirish.

Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda tarbiyachi javobgar shaxs hisoblanadi. Ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiyl va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko‘rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo‘yib berish, shuningdek bu tadbirlarni o‘tkazish vaqtлari va unga mas’ul bo‘lgan shaxslar belgilanadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi uslubchining rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni MTTga taklif etish, alohida esdaliklar va ko‘chma papkalardan foydalanish. Bolaning uyiga borishdan ko‘zlangan maqsad oila sharoiti,

bolaning oiladagi xulqi qiziqishlari, ota-onasi vazifalaridir. Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinadi.Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo‘lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a’zolari mактабгача та’лим ташкilotiga taklif qilinadi.Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va xisobotida, kundalik daftarida aks yettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak. Ota-onalarga mo‘ljallangan, ularning tafakkurini va amaliy faoliyatini kuchaytiruvchi, oilada bolaning hulqini va o‘zlarining tarbiyaviy ta’sirini tahlil qilishga undovchi pedagogik bilimlarni yanada kengroq targ‘ib qilish kerak. Oiladagi ijtimoiy pedagogik omillar va oila tuzilishi bolalar soni va katta yoshli kishilarning mavjudligi.

Shuningdek, noto‘liq oilalarda tarbiya jarayonlarining bolalar tarbiyasiga ta’sirini tahlil qilish. Mashg‘ulotda oilaviy muhit ayniqsa, ota-onaning yoshi, kasbi va ijtimoiy tuzilishining (dehqon, ishchi, ziyoli) bolalar tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Yakka yolg‘iz o‘g‘il-qiz bolalari mavjud, yo aksincha ko‘p bolali oilalardagi tarbiya jarayoni o‘rganiladi. Katta yoshdagi bobo va buvilarning yosh xususiyatlari va ularning nabiralariga tarbiyaviy ta’sirlari tavsiflanadi. Mashg‘ulotda qanday “Oilani mustahkam oila deyish mumkin?” mavzusidagi suhbatga tayyorlanib kelish vazifasi beriladi. Suhbat albatta o‘tkazilishi kerak. Ota-onalarning tarbiya madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish zarurligini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, xulosa chiqarish tarbiyachi uchun muhim masaladir.

Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlashga qaratilgan ta’lim texnologiyalarini amalga oshirish xususiyatlari ya’ni talabalarning yosh va individual xususiyatlari, ta’limning mazmuni va shakllari ularning yosh imkoniyatlariga mos kelishi ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini, ehtiyojlari va talablarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda, amaliyotning birinchi kunida har bir talabaga amaliyot uchun kerakli hujjatlar: amaliyotchi talabaning amaliyot rejasi, kundalik, tarbiyachi ish rejasi,

faoliyat (mashg'ulot) tahlili, tarbiyaviy ish reja, tarbiyaviy tadbir ssenariysi, MTT tarbiyachisi hujjatlari majmui, bolaga va guruhga pedagogik-psixologik tavsifnama, talabaga tavsifnama (MTT tarbiyachisi tomonidan), hisobotni yuritish kerak.

Kunlik amaliyot rejasiga asosan talabalar guruhlarga bo'linib, belgilangan guruh faoliyatini o'rganadilar. Amaliyot rahbarlari talabalar guruhini 1-2 soat mobaynida bajariladigan ishlar mazmuni bilan umumiy tanishtiradilar. Qolgan vaqtda talabalar rejalashtirilgan jarayonlarni mustaqil o'rganishlari, tarbiyachining ish faoliyatini kuzatishlari va kunlik bajarilgan ishlarni kundalik daftarga yozib borishlari talab etiladi.

Mazkur bosqichda talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etishda amaliyot rahbari tomonidan oldindan tuzilgan modulli dastur yaxshi samara beradi. Modulli dasturi har bir modul uchun alohida tuzilib, ish faoliyati elementlari, ya'ni kichik modullar va har bir elementining maqsadi hamda talaba o'zlashtirishi lozim bo'lgan materialga oid topshiriqlar va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, har bir elementdagi topshiriqni bajarish uchun belgilangan bahoni o'z ichiga oladi.

Bu holatda har bir talabaga modulli dastur tarqatiladi, talaba o'zi uchun belgilangan guruhda amaliyot rahbarining umumiy tanishtiruvidan so'ng, modulli dastur va topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarga asosan belgilangan topshiriqlarni mustaqil hamda ayrim murakkab, pedagogik vaziyatlarda amaliyot rahbarlari hamda MTT tarbiyachisidan o'rgangan holda bajaradi.

Pedagogik amaliyotining modul dasturi talabaning modulni o'rganish uchun belgilangan vaqt ichida ota-onalar bilan hamkorlik qilishga oid bilimlarni o'rganishni tizimliligi va uzviyligi ta'minlab, pedagogik amaliyotning boshqa vazifalarini hal etishga to'sqinlik qilmaydi.

Shuningdek, talabalarning har kuni 6 soatdan 2 soatiga mo'ljallangan aniq dasturdagi topshiriqlarni bajarish bilan mashg'ul bo'lishlari natijasida ularning bekor qolishi, amaliyotdan erta ketib qolishi yoki keraksiz ishlar bilan shug'ullanishlariga chek qo'yiladi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash vazifalari va pedagogik jarayon bosqichlari moduli ishlab chiqildi. (2.2.1-jadvalga qarang).

Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash vazifalari va pedagogik jarayon bosqichlari moduli

№	Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga oid topshiriqlar.	Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga oid ko'rsatmalar.	vaqtি	baho
1.	<p>Maqsad: Tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlik ish rejasi va kuzatuv kengashida ota-onalarning o'rni bilan tanishish (ishtirok etish) va tahlil qilish.</p> <p>Topshiriqlarni bajaring: Ish reja va kuzatuv kengashida nazarda tutilgan mavzular mazmuni bilan tanishing.</p>	<p>Tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlik ish rejasiga tarbiyachi munosabatini kuzating.</p> <p>Shaxsiy pozitsiyangizni bildirib izohlang.</p> <p>Kundalik daftarga qayd etib boring.</p>	4	
2	<p>Maqsad: Ota-onalar yig'ilish jadvali mavjud holati va mazmuni bilan tanishish va ishtirok etish.</p> <p>Topshiriqlarni bajaring: Guruhdagi tarbiyalanuvchilarning ota-onalari to'g'risida ma'lumotlar va oila turlarini aniqlang.</p>	<p>Jadvalda aks etgan ota-onalar yig'ilish mazmuni holatini kuzating oilaviy ahvoli bilan tanishing.</p>	4	
3	<p>Maqsad: MTT bilan hamkorlik aloqalari sust beqaror bo'lgan ota-onalarning uylariga tashrifni amalga oshirish.</p> <p>Topshiriqlarni bajaring:</p> <ol style="list-style-type: none"> Ota-onalar bilan farzandining yutuqlari haqida ayting. MTT bilan hamkorlik qilishga jalb qiling. 	<p>Tashrifdan oldin puxta tayyorgarlik ko'ring.</p> <p>Talab emas taklif sifatiga muloqotni amalga oshiring. Majburiyatlar yuklamang.</p>	6	

4	<p>Maqsad:</p> <p>Ota-onalar uchun buklet, tavsiya va fleerlar tayyorlash va taqdim etish</p> <p>Topshiriqlarni bajaring:</p> <p>Farzand tarbiyasiga oid tavsiyalar ishlab chiqing.</p>	<p>Tavsiyalar hajmi ko‘p bo‘lmasligi, yorqin ranglarda bo‘lishi kerak.</p> <p>Ota-onalar MTTga ertalab farzandlarini olib kelganda bering.</p> <p>Xadicha Kubro Tongarning “Baqirmaydigan onalar” kitobi tavsiya etiladi.</p>	6	
5	<p>Maqsad:</p> <p>“<i>Odobli bola</i>” o‘yin texnologiyasini o‘tkazish</p> <p>Topshiriqlarni bajaring:</p> <p>1.Tarbiyalanuvchilarni yoshiga mos odob-ahloq qoidalarini o‘rganing.</p> <p>2. Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashga mavzular tavsiya bering.</p>	Ziyovuddin Rahim. “ <i>Bola – odobi bilan aziz</i> ” (Farzand tarbiyalashda ota-onalarga maslahatlar) kitobi asosida mavzularni tanlab ota-onalar bilan ishlang.	8	
6	<p>Maqsad:</p> <p>Sport musobaqalarini tashkil etish</p> <p>Topshiriqlarni bajaring:</p> <p>Musobaqa shartlarini ishlab chiqing.</p>	<p>Tarbiyachi maslahatini oling.</p> <p>Kun tartibiga muvofiq rejalshtiring.</p>	8	
7	<p>Maqsad: Tarbiyalanuvchi portfoliosi tarkibiga kiruvchi – “Mening oilam” bo‘limda oila a’zolari haqida qisqacha ma’lumot olish.</p> <p>Topshiriqlarni bajaring:</p> <p>ular qaysi sohada ishlaydi, sevimli mashg‘uloti nima, ularning qanday yaxshi fazilatlari bor kabi savollarni bering.</p>	<p>Tarbiyalanuvchilarning yoshiga mos savvollar tuzing.Javoblarini portfolosiga joylang.</p>		
8	<p>Maqsad: Modul dasturini yakunlash.</p> <p>1. Modul dasturi maqsadini yana bir bor o‘qib chiqing va o‘zingizni</p>	<p>Modulda belgilangan topshiriqlarni bajarish bo‘yicha o‘z faoliyatizingizni</p>	4	

	bilish-anglash faoliyatingizni baholang. 2. Test topshiriqlarini bajarishga kirishing. 3. Qaysi ishingizdan qoniqmasangiz uni qaytadan bajaring.	tahlil qiling. Test topshiriqlarini bajaring va test kaliti yordamida o‘z natijangizni baholang. Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball		
--	---	--	--	--

Ma’lumki, amaliyot Nizomiga ko‘ra, uning natijalarini baholash yakuniy bosqich hisoblanib, kafedrada dekan, tegishli kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma (bo‘lim) vakili hamda amaliyot rahbarlari ishtirokida talaba amaliyot davrida o‘zlashtirgan bilimlari, olgan taassurotlari haqida hisobot beradi.

Fikrimizcha, amaliyotchining 1 oy mobaynida egallagan bilimlarini 15-20 daqiqalik hisoboti asosida to‘laqonli baholab bo‘lmaydi.

Hisobot vaqtida amaliyotga faol ishtirok etgan, hamma topshiriqlarni o‘z vaqtida to‘g‘ri bajargan talabalar o‘zi egallagan bilimlarini to‘liq bayon qila olmasligi, yoki hayajonlanishi va boshqa sabablarga ko‘ra yaxshi natija ko‘rsata olmasligi mumkin. Hisobot vaqtida past baholanishi, uning o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini pasaytiradi va o‘z faoliyatidan, komissiya xulosasidan qoniqmaganlik hisini tug‘diradi.

Zamonaviy pedagogik amaliyot sharoitida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etishi lozim. Talabalarning ota-onalar bilan hamkorlik qilishni o‘zlashtirishini baholashni har bir modulni o‘rganish jarayonida tashkil etish maqsadga muvofiq. Talabalarning pedagogik amaliyotda o‘zlashtirish natijalarini aniqlashda har bir modul yakuni bo‘yicha nazorat topshiriqlarini turli variantlarda, masalan, 8 ta test topshiriqlari asosida ishlab chiqish mumkin.

Ma’lumki, pedagogik testlar talabaning bilim o‘zlashtirish darajasini aniqlash va obyektiv baholash vositasi bo‘la oladi[4]. Test topshiriqlari talabalarning bilish faolligini oshirish, tanlash qobiliyatini rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini baholashda ahamiyatlidir.

Har bir modul yakunida o‘z bilimi natijasini o‘zi baholagan talaba guruh ichida past baho olmaslikka, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishga, yaxshi baho olishga intiladi, ya’ni guruhda raqobat muhiti yaratiladi. Bu holat hamkorlik faoliyatini o’zlashtirish va pedagogik amaliyot natijalarining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Har bir modul bo‘yicha baholashda quyidagi mezonlarga asoslanishni tavsiya etamiz (2.2-jadval).

No	Faoliyat turi	Nazorat soni	Baholash me’zoni	Maksimal ball
1	Test topshirig’i	8	To‘g‘ri javob uchun	10 ball

Izoh:

5 baho uchun - 8-10 ball

4 baho uchun - 6-7 ball

3 baho uchun - 4-5 ball

Amaliyotni yakuniy baholashda esa modular bo‘yicha to‘plangan ballarning o‘rtacha qiymati hamda hisobot davridagi talabaning faolligi, kasbiy sifatlarini namoyon eta olganligini e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, pedagogik amaliyotini o‘tkazish va baholashni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish amaliyot natijalarining samarali bo‘lishini ta’minlabgina qolmay, mehnat bozorida raqobatlasha oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Pedagogik kuzatishlar va tadqiqot natijalari quyidagi imkoniyatlarni shakllantirishga qaratiladi;

- Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash modulli texnologiya asosida tashkil etish talaba faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirilishini ta’minlaydi. Shuning uchun xar bir modul uchun tuzilgan dastur sodda va talaba uchun tushunarli bo‘lishi, hamkorlik shakllari, metod va vositalarini o‘rganishga;

- Modul dasturi asosida har bir moduldagi muayyan topshiriqlarni amaliyot rahbari, talaba, MTT tarbiyachisi, ota-onalar hamkorlik muhitini o‘rganish talabalarda mustaqil ishlash, o‘rganish, bilmaganini so‘rash, pedagogik amaliyot vositasida boshqalar bilan munosabatga kirishish kabi ko‘nikmalarni shakllanishiga

yordam beradi. Shu sababli talabalarga amaliyot rahbari va MTT tarbiyachisini tayinlashda, ularning kasbiy mahorati, ustozlik sifatlarini e'tiborga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.** <https://kknews.uz/oz/100808.html>
- 2.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi VM-1059 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiysi” <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>
- 3.** Норбошева, М. А. Мактабгача ёшдаги болаларнинг оила ҳақидаги тасаввурларини ўрганиш. Инновации в Педагогике и психологии, 2021 4(6).
- 4.** Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi: “Nasaf”, 2000. 61-bet.
- 5.** Abduraxmonova S. Sh. “Pedagogik amaliyot - talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida” MUG‘ALLIM HƏM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIO‘ Ilimiy-metodikalıq jurnal 2023. 3/3-san.131- b.